OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	



IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI

G'ulomjan Matkarimov

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishning asosiy nazariy maktablari – klassik, neoklassik va keynsian yondashuvlar – hamda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida o'sishni belgilovchi talab, taklif, taqsimot, ijtimoiy omillar va davlat siyosati tizimi atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda har bir nazariy maktabning iqtisodiy o'sishga oid konseptual qarashlari, ularning nazariy-mantiqiy ahamiyati va iqtisodiy rivojlanish jarayonini izohlashdagi o'rni ochib beriladi. Maqola iqtisodiy o'sishni tushunishda nazariy yondashuvlarning o'zaro farqli va mushtarak jihatlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, klassik nazariya, neoklassik yondashuv, keynsian modeli, texnologik progress, iqtisodiy omillar, davlat siyosati.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the main theoretical schools of economic growth-classical, neoclassical, and Keynesian approaches-as well as the system of factors determining growth in the modern economy, including demand, supply, distribution, social factors, and government policy. The study examines the conceptual views of each theoretical school on economic growth, their theoretical and logical significance, and their role in explaining the process of economic development. The article aims to identify both the distinctive and common features of the major economic growth theories.

Key words: economic growth, classical theory, neoclassical approach, Keynesian model, technological progress, economic factors, government policy.

Аннотация. В статье проводится всесторонний анализ основных теоретических школ экономического роста – классической, неоклассической и кейнсианской – а также системы факторов, определяющих экономический рост в условиях современной экономики, включая спрос, предложение, распределение, социальные факторы и государственную политику. Раскрываются концептуальные подходы каждой теоретической школы к проблеме экономического роста, их теоретико-логическое значение и роль в объяснении процессов экономического развития. Работа направлена на выявление сходств и различий между основными теориями экономического роста.

Ключевые слова: экономический рост, классическая теория, неоклассический подход, кейнсианская модель, технологический прогресс, экономические факторы, государственная политика.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sish har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sish aholi turmush darajasini oshirish, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois iqtisodiy o'sish masalasi iqtisodiy nazariyada ham, amaliy siyosatda ham doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, manbalari va mexanizmlarini tushuntirib beruvchi turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular klassik, neoklassik, keynsian hamda endogen o'sish nazariyalari doirasida shakllangan. Ushbu nazariyalar iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni turlicha izohlaydi hamda kapital, mehnat, texnologiya, innovatsiya va institutsional muhitning o'rnini yoritib beradi. Nazariy asoslarni chuqur tahlil qilish iqtisodiy o'sish jarayonlarini to'g'ri baholash va samarali rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy iqtisodiyotning eng dolzarb muammolaridan biri barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalasidir. "Iqtisodiy o'sish" tushunchasining eng sodd talqini milliy daromad va ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan izohlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushuncha, asosan, ishlab chiqarish hajmining mutlaq o'sishi yoki o'sish sur'atlarini ifodalovchi nisbiy ko'rsatkich sifatida qo'llanadi. Jumladan, S. Fisher, R. Dornbush, R. Shmalenzi, K.R. Makkonell va S.L. Bryu iqtisodiy o'sishni muayyan vaqt davomida real YaIM yoki YaMMning o'sishi, shuningdek real YaIMning aholi jon boshiga o'sishi sifatida talqin qiladilar.



Biroq iqtisodiy o'sish faqat raqamli ko'rsatkichlar bilan cheklanmaydigan murakkab iqtisodiy hodisadir. Uning mazmunini ochib berishda turli yondashuvlar mavjud. Masalan, tarmoq nuqtai nazaridan iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sifatining oshishi, ya'ni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Formatsion yondashuvda esa iqtisodiy o'sish jamiyat mahsulotining ortishi, milliy boylikning ko'payishi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi hamda ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashuvida ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi o'z ichiga bir qator muhim masalalarni qamrab oladi. Jumladan, o'sish manbalari va omillarini aniqlash, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, milliy iqtisodiyot tarkibining yangilanish sur'atlarini baholash, tanlangan texnologik siyosatning istiqbollari va uning iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish, shuningdek, o'sishning ijtimoiy, texnologik va makroiqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish shular jumlasidandir. G'arb iqtisodiy fikrlar maktabida ushbu muammolarni qiyosiy o'rganish jarayonida barqarorlik va raqobatbardoshlik o'rtasidagi mutanosiblik, inflyatsiya va bandlik o'rtasidagi ziddiyatlar, ekstensiv va intensiv o'sish yo'nalishlari, shuningdek ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bilan ijtimoiy rivojlanish nisbatlari kabi murakkab masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Umuman olganda, iqtisodiy o'sish iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan murakkab va ko'p omilli kategoriya bo'lib, mamlakat, tarmoq yoki mintaqaning umumiy iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o'sish masalasi iqtisodiy nazariyada eng ko'p o'rganilgan yo'nalishlardan biri bo'lib, uning nazariy asoslari klassik iqtisodiy maktabdan boshlab zamonaviy endogen o'sish konsepsiyalarigacha bo'lgan evolyutsion rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy o'sish manbalari, omillar tizimi hamda o'sishni izohlovchi modellar turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Klassik iqtisodchilar – A. Smit va D. Rikardo asarlarida iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari sifatida mehnat taqsimoti, bozor mexanizmlarining erkinligi, kapital jamg'arilishi va investitsiyalar ko'rsatiladi. A. Smit ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ixtisoslashuv va raqobat muhitining rolini asoslab bergan bo'lsa, D. Rikardo yer resurslarining cheklanganligi hamda kamayuvchi unumdorlik qonuni sababli uzoq muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar iqtisodiy o'sishni, asosan, real sektor omillari bilan bog'lab, resurslardan foydalanish samaradorligini markaziy o'ringa qo'yadi.

Neoklassik nazariya doirasida iqtisodiy o'sishning ilmiy asoslari yanada tizimlashtirildi. R. Solou va T. Svan tomonidan ishlab chiqilgan modelda o'sish omillari sifatida kapital, mehnat va texnologik taraqqiyot ajratib ko'rsatiladi. Mazkur model iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli sur'atini asosan ekzogen texnologik taraqqiyot belgilashini asoslaydi; kapital jamg'arilishi esa qisqa va o'rta muddatda o'sishni tezlashtirishi mumkin bo'lsa-da, kamayuvchi chegaraviy mahsulдорlik sababli uning uzoq muddatli ta'siri cheklangan bo'ladi. Neoklassik yondashuvda "barqaror holat" (steady state) tushunchasi hamda iqtisodiyotlarning yaqinlashuvi (convergence) g'oyasi keng muhokama qilinadi.

Keynschilik yondashuvda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sifatida yalpi talab, investitsiyalar va davlatning iqtisodiy faolligi ilgari suriladi. Xususan, R. Xarrod va E. Domar modellari iqtisodiy o'sishni investitsiyalar hajmi hamda kapitalning ishlab chiqarishdagi samaradorligi bilan bog'lab, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda davlat aralashuvining muhimligini asoslaydi. Ushbu yondashuv neoklassik modelga nisbatan iqtisodiy beqarorlik, resessiya va ishsizlikning iqtisodiy o'sish jarayonlariga salbiy ta'sirini chuqurroq yoritadi.

1980-1990-yillarda endogen o'sish nazariyalari iqtisodiy o'sishni izohlashda yangi bosqichni boshlab berdi. P. Romer, R. Lukas va boshqa tadqiqotchilar o'sishning ichki manbalariga – ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsiyalar, inson kapitali hamda bilimlar tarqalishi (spillover) kabi omillarga alohida e'tibor qaratdilar. Endogen nazariyalarga ko'ra, texnologiya va bilimlar iqtisodiy tizim ichida shakllanadi hamda davlat siyosati, ta'lim, ilm-fan va innovatsion muhit iqtisodiy o'sish sur'atlarini uzoq muddat davomida yuqori darajada ushlab turishi mumkin. Shu bilan birga, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish orqali o'sishni jadallashtiradi.

So'nggi ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy o'sish omillari faqat klassik ishlab chiqarish resurslari bilan cheklanmay, balki institutsional muhit, boshqaruv sifati, mulk huquqlarining himoyasi, korrupsiya darajasi, moliyaviy sektor rivoji hamda tashqi iqtisodiy integratsiya kabi omillar bilan ham izohlanmoqda. Institutsional yondashuv (D. Nort va boshqalar) iqtisodiy o'sishda "qoidalar va institutlar"ning rolini alohida ta'kidlab, samarali institutlar investitsiyalarni rag'batlantirishi, transaktsion xarajatlarni kamaytirishi va bozor ishonchligini oshirishini asoslaydi. Shuningdek, xalqaro savdo va iqtisodiy ochiqlik bo'yicha tadqiqotlar eksport salohiyati, texnologiyalar transferi va raqobat bosimi orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi.



Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, uning nazariy talqinlari vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada kengayib borgan. Dastlab kapital va mehnat asosiy manbalar sifatida ko'rilgan bo'lsa, keyinchalik texnologik taraqqiyot, inson kapitali, innovatsiyalar va institutsional omillar ustuvor ahamiyat kasb eta boshlagan. Shu bois iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda turli nazariy yondashuvlarni uyg'unlashtirish, omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib kompleks yondashuvni qo'llash zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy o'sishning nazariy asoslari hamda uni belgilovchi omillarni tahlil qilishda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv qo'llanilib, iqtisodiy o'sish omillari o'zaro bog'liq va ko'p darajali jarayon sifatida o'rganildi.

Nazariy tahlil usuli orqali iqtisodiy o'sishning klassik, neoklassik, keynsian va endogen o'sish nazariyalari tahlil qilindi hamda ularning asosiy konseptual jihatlari umumlashtirildi. Qiyosiy-taqqoslash usuli yordamida turli nazariy yondashuvlarning iqtisodiy o'sishni izohlashdagi farqli va umumiy tomonlari aniqlandi.

Shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, mantiqiy umumlashtirish va abstraktlashtirish usullaridan foydalanilib, iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi asosiy omillar – kapital, mehnat, texnologik taraqqiyot, inson kapitali va institutsional muhitning roli baholandi. Tadqiqot natijalari ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodik asos bo'lib xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sish omillarini aniqlash va ularni tahlil qilish iqtisodiy o'sish nazariyasining eng muhim va markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi. Umumiy ma'noda iqtisodiy o'sish omillari ishlab chiqarishning real hajmini oshirish imkonini beradigan tashqi va ichki sabablar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu omillar tashqi ta'sir darajasiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita, mazmuniga ko'ra sifat va miqdor, tabiatiga ko'ra moddiy va nomoddiy, rivojlanish shakliga ko'ra esa ekstensiv va intensiv guruhlariga ajratiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish omillari va uning rezervlari o'rtasida tub farq mavjud: omillar amalda ishlayotgan va real o'sishni ta'minlayotgan manbalar bo'lsa, rezervlar hali to'liq ishga solinmagan, biroq katta salohiyatga ega imkoniyatlarni ifodalaydi. Masalan, ayrim iqtisodiyotlarda, jumladan Rossiya misolida, muayyan iqtisodiy rezervlar mavjud bo'lsa-da, ularning yetarli darajada faollashtirilmagani sababli ular real o'sish manbai sifatida to'liq namoyon bo'la olmayapti.

Iqtisodiy o'sish masalasini nazariy jihatdan o'rganishda iqtisodchilar asrlar davomida turli yondashuvlarni ilgari surgan bo'lib, ularni shartli ravishda uchta asosiy maktabga ajratish mumkin: klassik, neoklassik va keynsian yondashuvlar. Ushbu maktablar iqtisodiy o'sishni turlicha izohlagan bo'lsa-da, ularning har biri iqtisodiy rivojlanishning muayyan jihatlari tushunishga muhim hissa qo'shgan.

Klassik iqtisodchilar iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari sifatida mehnat, kapital va tabiiy resurslarni ko'rsatib, iqtisodiy rivojlanishni ishlab chiqarish omillarining ko'payishi va samaradorligi bilan bog'laganlar. Adam Smit sarmoya va kapital jamg'armalarini milliy boylik o'sishining markaziy drayveri sifatida baholab, kapital hajmining ortishi ishlab chiqarish kengayishiga va jamiyat farovonligining oshishiga olib kelishini ta'kidlagan. Klassik maktab vakillari iqtisodiy tizim asosan erkin bozor qonunlari asosida tartibga solinadi, degan g'oyani ilgari surib, iqtisodiy o'sishning tabiiy mexanizmini resurslardan maqbul foydalanish bilan izohlaganlar. Shu jihatdan, klassik yondashuvning mantiqiy ahamiyati shundaki, u iqtisodiy o'sish nazariyasining fundamental poydevorini – ya'ni ishlab chiqarish omillari va resurslar bazasining hal qiluvchi rolini shakllantirib berdi.

Neoklassik iqtisodchilar klassik g'oyalarni rivojlantirgan holda iqtisodiy o'sishni bozorning o'z-o'zini tartibga solishi, resurslardan optimal foydalanish, mehnat va kapital samaradorligini oshirish hamda texnologik progress orqali izohlaydilar. Ularning nazariy qarashlariga ko'ra, iqtisodiyotda yuqori samaradorlik resurslarning maqbul taqsimlanishi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi bilan ta'minlanadi. Ushbu g'oyalarni matematik jihatdan asoslash maqsadida ishlab chiqilgan Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi mehnat va kapitalning iqtisodiy o'sishdagi nisbiy ulushini aniqlash imkonini bersa, Solou iqtisodiy o'sish modeli texnologik taraqqiyotni uzoq muddatli va barqaror o'sishning asosiy manbai sifatida belgilaydi. Shu ma'noda, neoklassik maktabning mantiqiy ahamiyati shundaki, u iqtisodiy o'sish faqat resurslar ko'payishi bilan emas, balki texnologiya, innovatsiya va samaradorlikning oshishi bilan ta'minlanishini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Keynsian nazariya iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida agregat talabni ilgari surib, iqtisodiy dinamikani iste'mol, sarmoya, foiz stavkalari va davlat xarajatlari orqali izohlaydi. Dj. M. Keynsning ta'kidlashicha, talab yetishmasligi ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, bandlikning pasayishi va iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi mumkin, shu bois iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun davlatning fiskal va monetar siyosat orqali faol aralashuvi zarur. U jamg'arma va sarmoya harakati, foiz stavkalari o'zgarishi hamda davlat xarajatlarining iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini ilmiy asosda yoritib bergan. Shundan kelib chiqib, keynsian yondashuvning



mantiqiy ahamiyati iqtisodiy o'sishni ta'minlashda talabni rag'batlantirish, sarmoya faolligini oshirish va davlat siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikdagi rolini aniq ko'rsatib berganidadir.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy o'sish omillari murakkab va ko'p qirrali tizim sifatida qaraladi. Iqtisodchilar ularni, asosan, besh yo'nalishda o'rganadilar. Birinchisi – talab omillari bo'lib, agregat talab, iste'mol, sarmoya va eksport imkoniyatlarining kengayishi iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi asosiy manbalar sifatida talqin etiladi. Ikkinchisi – taklif omillari bo'lib, tabiiy resurslar, texnologiya darajasi, mehnat sifati va kapital quvvatlarining yaxshilanishi ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Uchinchi yo'nalish – taqsimot omillari bo'lib, resurslardan samarali va oqilona foydalanish, ishlab chiqarish omillarining optimal kombinatsiyasi hamda bozor mexanizmlarining samaradorligiga tayanadi.

To'rtinchi yo'nalish ijtimoiy omillarni qamrab olib, investitsiya motivatsiyasi, aholi daromadlari, qonun ustuvorligi, biznes muhiti, inson kapitali sifati va institutsional barqarorlik iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Beshinchi yo'nalish davlat siyosatlari bo'lib, soliq tizimi, moliya-kredit siyosati, davlat investitsiyalari hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etadi. Umuman olganda, iqtisodiy o'sish dinamikasi ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi va muvozanatli ishlash darajasi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy mezonini bo'lib, uning mohiyati resurslar bazasi, texnologik rivojlanish va talab omillarining o'zaro bog'liq harakati bilan belgilanadi. Klassik maktab iqtisodiy o'sishning moddiy poydevorini shakllantirgan bo'lsa, neoklassik yondashuv samaradorlik va texnologik progressning uzoq muddatli barqaror o'sishdagi hal qiluvchi ahamiyatini ilmiy asoslab berdi. Keynesian nazariya esa talab, sarmoya va davlat siyosatining iqtisodiy barqarorlik hamda rivojlanishdagi muhim rolini ochib berdi. Shu bois, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda resurslardan samarali foydalanish, texnologik yangilanishni jadallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, inson kapitalini rivojlantirish va davlatning tartibga soluvchi mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida iqtisodiy o'sishning nazariy asoslari hamda uni belgilovchi omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Iqtisodiy nazariya rivojlanishining turli bosqichlarida iqtisodiy o'sish tushunchasiga berilgan yondashuvlar o'rganilib, klassik, neoklassik, keynsian va endogen o'sish nazariyalari doirasida shakllangan ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, dastlab iqtisodiy o'sish asosan ishlab chiqarish omillarining miqdoriy kengayishi orqali izohlangan bo'lsa, hozirgi davrda uning asosiy manbalari sifat jihatidan o'zgarib, bilimga asoslangan iqtisodiyot, innovatsiyalar va inson kapitali ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiy o'sish jarayoni ko'p omilli xususiyatga ega bo'lib, kapital jamg'arilishi, mehnat resurslari, texnologik taraqqiyot, investitsiyalar, institutsional muhit hamda makroiqtisodiy barqarorlik o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligi nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi, balki mehnat unumdorligining oshishi, resurslardan samarali foydalanish hamda innovatsion faollik darajasi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat siyosati va bozor mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida iqtisodiy o'sishga ichki va tashqi omillarning ta'siri tahlil qilinib, ularning muvozanatli uyg'unligi iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbollari belgilashi aniqlangan. Olingan natijalar iqtisodiy o'sish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy yondashuvlarni amaliy sharoitlar bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar va chiqarilgan xulosalardan kelib chiqib, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va uning barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, inson kapitalini rivojlantirish iqtisodiy o'sishning eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, shuningdek, ilm-fan va tadqiqot faoliyatiga investitsiyalarni ko'paytirish orqali mehnat unumdorligini oshirish mumkin.

Ikkinchidan, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususi sektor faolligini rag'batlantirish hamda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushini oshirish iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada moliyaviy bozorlarni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, innovatsion rivojlanish va texnologik modernizatsiyaga alohida e'tibor qaratish zarur. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy-texnik ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan yangi bosqichini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, samarali institutsional muhitni shakllantirish, mulk huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlash, davlat boshqaruvi sifatini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirish iqtisodiy o'sish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.



Beshinchidan, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish orqali iqtisodiy o'sishning qo'shimcha manbalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smit A. Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot. M.: Ekonomika, 1993. 684 b.
2. Rikardo D. Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning asoslari. M.: Progress, 1995. 320 b.
3. Keynes J.M. Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. M.: Progress, 1978. 527 b.
4. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics. 1956. Vol. 70, No. 1. P. 65-94.
5. Harrod R.F. An Essay in Dynamic Theory // Economic Journal. 1939. Vol. 49. P. 14-33.
6. Domar E.D. Capital Expansion, Rate of Growth, and Employment // Econometrica. 1946. Vol. 14, No. 2. P. 137-147.
7. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. 1990. Vol. 98, No. 5. P. 71-102.
8. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22. P. 3-42.
9. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p
10. Barro R.J., Sala-i-Martin X. Economic Growth. – New York: McGraw-Hill, 1995. 539 p.
11. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. London: Pearson Education, 2015. 864 p.
12. Mankiw N.G. Macroeconomics. New York: Worth Publishers, 2019. 688 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>